



TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI

SCIENTIFIC-THEORETICAL JOURNAL

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА



2/2025

BUXORO MADRASALARINING IJARADORLIK MASALALARI TARIXIDAN

Abdullayeva Dilfuza

Buxoro davlat universiteti kafedrası o‘qituvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktor (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada sovet hokimiyati yillarida Buxoro me‘moriy obidalari – madrasalardan foydalanish va ularning ijaradorligi bilan bog‘liq jihatlar Buxkomstaris tashkilotining faoliyatiga doir hujjatlar asosida yoritiladi. Abdulazizxon, Ko‘kaldosh, Nodir Devonbegi, Gavkushon, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon, Abdulazizxon madrasalari bilan bog‘liq muhofaza qilish, saqlash, qolaversa, ulardan foydalanish kabi jarayonlar misolida mavjud hokimiyatning munosabati ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijaradorlik, ta‘mirlash, Sredazkomstaris, obida, deformatsiya, MITICHU, ijara tushumi, maxsus mablag‘, shartnoma, Abdulazizxon, Ko‘kaldosh, Nodir Devonbegi, Gavkushon, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon.

ИЗ ИСТОРИИ АРЕНДНЫХ ВОПРОСОВ БУХАРСКИХ МЕДРЕСЕ.

Аннотация. В статье на основе документов, связанных с деятельностью организации Бухкомстарис, рассматриваются аспекты, связанные с использованием и арендой архитектурных памятников Бухары – медресе – в годы советской власти. Также анализируется отношение власти на примере таких процессов, как охрана, сохранение и использование медресе Абдулазизхана, Кукалдаша, Нодира Деванбеги, Гавкушана, Мир Араба, Абдуллахана, Модарихана и Абдулазизхана.

Ключевые слова: аренда, ремонт, Средазкомстарис, памятник, деформация, МИТИЧУ, доход от аренды, специальные фонды, договор, Абдулазизхан, Кукалдаш, Нодир Деванбеги, Гавкушан, Мир Араб, Абдуллахан, Модарихан.

FROM THE HISTORY OF RENTAL ISSUES IN BUKHARA MADRASSAS

Abstract. The article, based on documents related to the activities of the Bukhkomstaris organization, examines aspects related to the use and lease of architectural monuments of Bukhara - madrassas - during the Soviet era. It also analyzes the attitude of the authorities using the example of such processes as the protection, preservation and use of the madrassas of Abdulazizkhan, Kukaldash, Nodir Devanbegi, Gavkushan, Mir Arab, Abdullakhan, Modarihan and Abdulazizkhan.

Key words: lease, repair, Sredazkomstaris, monument, deformation, MITICHU, rental income, special funds, agreement, Abdulazizkhan, Kukaldash, Nodir Devanbegi, Gavkushan, Mir Arab, Abdullakhan, Modarihan.

XX asrning 20-yillariga kelib yuz bergan siyosiy o'zgarishlar o'quv muassasalari – madrasalarga bo'lgan munosabatda ham aks etmay qolmadi. Bu davrda ta'mirlanishi uchun ko'proq mablag' talab etilgan yoki shaharsozlik va yo'l qurilishlarida xalaqit bergan obidalarni buzib yuborish hollari avj oldi.

Ta'kidlash joizki, bu davrda saqlanib qolgan madrasalar o'zining birlamchi vazifasini bajarmasa-da, tarixiy ahamiyatidan kelib chiqib davlat ro'yxatiga kiritilganligi, o'lkashunos olimlarning ilmiy tadqiqot obyektiga aylanishi, qolaversa, turistik marshrut yo'nalishida joylashganligi sabab ta'mirlash jarayoniga jalb etildi. Yodgorliklardan turli xo'jalik va maishiy maqsadlarda foydalanish zarurati, sanoat va

ishlab chiqarish korxonalari hamda tashkilotlarga ijaraga berilishi ham ularning ta'mirlanishini ta'minlagan.

XX asrning 20-80-yillarida Buxoro me'moriy obidalari –madrasalarning ekspluatatsiyasi va ushbu jarayon bilan bog'liq masalalarni o'rganishda arxiv hujjatlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Milliy arxivining Turkkomstaris va Sredazkomstaris –R-394-fondning 266 – yig'majildida hamda Uzkomstaris-2296-fondning 9, 17, 121, 144, 313, 428, 449 – yig'majildlarida o'quv muassasalari – madrasa binolaridagi foydalanuv amaliyoti tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud. Ushbu manbalarning tahlili Buxoro tarixiy yodgorliklarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, tasarruf etish ishlariga munosabat masalasi aks etganligini ko'rsatdi.

Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. XX asrning 20-80-yillarida Buxoro me'moriy obidalari – madrasalarning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq masalalar mazkur usullar yordamida yoritildi.

Mavzuga doir hujjatlar tahlili, madrasalardan noo'rin foydalanish hollari ko'plab uchraganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, Sredazkomstarisning 1927-yil 15-oktabrda bo'lib o'tgan yig'ilishida Abdulazizxon madrasasini qamoqxona (hibsxona) sifatida ijaraga berish masalasi ko'rib chiqiladi. Yig'ilishning qaror qismida: "...Tarixiy yodgorlikni fuqaroviy ahamiyatga ijaraga berishga prinsipial qarshilik bildiramiz. Ammo qo'mita (Sredazkomstaris – D.A.) Buxorodagi vaziyatdan kelib chiqqan holda ma'lum talab-shartlar asosida ruxsat berishni ma'qul ko'radi.", – deyiladi[1]. Bu talablar shahar Ijroiya qo'mitasi Buxkomstaris va Sredazkomstaris bilan kelishgan holda yodgorlikni ta'mirlash ishlarini amalga oshirishi, binoning asl holatini saqlash, shuningdek, ijara haqqini to'lash majburiyati kabilardan iborat edi.

Shu o'rinda Buxkomstarisning asosiy moliyaviy manbasi – maxsus tushumlar ko'p hollarda ijara mablag'laridan shakllantirilganligini ta'kidlash joiz. Bu, qisman,

yodgorliklarni ijaraga berish tizimi ta'mirlash ishlarini amalga oshirish maqsadida ham yo'lga qo'yilganligini anglatadi.

1927-yil yanvar-sentabr oylaridagi moliyaviy kirim hujjatlarini o'rganish asnosida Nodir Devonbegi madrasasining 22 hujrasi mehmonxona sifatida ijaraga berilishi natijasida 3200 rubl miqdorida ijara tushumiga erishilganligi ma'lum bo'ldi. Ko'kaldosh madrasasidan esa bir oyda o'rtacha 300 rubl daromad olingan. Shuningdek, madrasa qarshisidagi maydondan ham 300 rubl tushum kelib tushgan[2]. Bundan nafaqat me'moriy yodgorlik binosi balki uning atrofidagi yer(dala) va maydonlar ham ekspluatatsiya qilinganligini tushunish mumkin.

XX asrning 30-yillarida yodgorliklarni ta'mirlash va ilmiy asosda o'rganish bilan birga ulardan turli tashkilotlar uchun bino sifatida foydalanish amaliyoti davom etgan. Maxsus tashkilot va muassasalarning 1935-yilgi hisobot hujjatlarida Gavkushon madrasasi Maorif xodimlari uchun ajratilganligi qayd etiladi. Bu yillarda Nodir Devonbegi madrasasida Buxkomstaris devonxonasi, ekskursiya bazasi xodimlari xonasi, Ko'kaldosh madrasasida esa Buxoro muzeyi joylashgan. Xalifa Xudoydod madrasasidan imkoniyati cheklanganlar uchun nogironlik uyi sifatida foydalanilgan. Mir Arab madrasasi bu paytga kelib g'alla omboriga aylantirilgan edi[3]. O'rganishlar natijasida, me'moriy yodgorliklar nafaqat don mahsulotlarining vaqtinchalik saqloviga balki paxta xomashyosining ombori sifatida ham ijaraga berilganligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, 1936-yil sentabr-dekabr oylarida Abdullaxon va Modarixon madrasalaridan shu maqsadda foydalanilgan. Buxkomstaris vakili S.A.Sudakov paxta saqlovi yodgorliklarga bug'doy va g'allaga nisbatan kamroq zarar yetkazishini ta'kidlab, Uzkomstarisdan ruxsat olishga muvaffaq bo'ladi. Ijaradorlar bilan tuzilgan shartnomaga binoan har bir yodgorlik uchun oyiga 300 rubl ijara puli to'langan[4]. Ammo, mavjud ma'lumotlar tahlili, ko'rilgan foyda-zarar nisbatining mutanosib bo'lmaganligini ko'rsatadi.

Buxoro me'moriy obidalarining XX asr 40-yillaridagi ta'mirlanish tarixida Ikkinchi jahon urushining bevosita ta'siri seziladi. Urushning dastlabki yillarida

Markazdagi ayrim sanoat korxonalarini va muassasalarning Buxoroga ko‘chirilishi yodgorliklar, xususan shahar mudofaa devori va darvozalarini buzish, mavjud yodgorliklardan esa zamonaviy maqsadlarda foydalanish jarayonini tezlashtiradi.

1941-yil iyulda Uzkomstaris raisi V.A.Jahongirov bilan Buxorodagi vakil Bulichev(ismi hujjatlarda ko‘rsatilmagan) o‘rtasida front oldidan ko‘chirilgan aholini joylashtirish masalasida muzokara bo‘ladi[5]. Natijada, shu yilning 2-avgust sanasida Mir Arab, Abdulazizxon va Ulug‘bek madrasalari shahar Ijroiya qo‘mitasi tasarrufiga o‘tkazilib, ularda front oldi aholisi joylashtiriladi.

Buxoro me‘moriy obidalarining ta‘mirlanishi bilan bog‘liq hujjatlarning tahlili natijasida, 1950 yildagi ta‘mirlash dasturiga Abdulazizxon madrasasining kiritilmaganligi aniqlandi. Buni 1951-yil sentabrga qadar madrasa Buxoro shahar harbiy komissariat (горовоенкомат) binosi vazifasini bajarganligi bilan izohlash mumkin. O‘rganishlar, Abdulazizxon madrasasining 1953-yil 6-mayda Arxitektura ishlari boshqarmasi boshlig‘i R.R.Abdurasulov ruxsati hamda Buxoro shahar ijroiya qo‘mitasining xulosasiga binoan yuqumli kasalliklar shifoxonasi sifatida uch oy muddatga ijaraga berilganligini ham ko‘rsatdi[6]. Kasallik (dizenteriya)ga chalingan bemorlar madrasa hujralarida joylashtirilgan.

Shu qatorda, Modarixon madrasasi 1952-yilda “Сахарсбыт” fabrikasi tomonidan ijaraga olinganligi ma‘lum. Bu vaqtga qadar Ko‘kaldosh madrasasi esa “Союзтабакторг” idorasi ixtiyorida bo‘lgan va tamaki mahsulotlarini saqlash ombori sifatida foydalanilgan. Ushbu idora tugatilib, mulki “Главсахар”- O‘zbek qandlavlagi trestiga o‘tganligi sababli madrasa 1952-yilda shakar ombori vazifasini bajara boshlaydi.

Nodir Devonbegi madrasasi esa 1955-yil mayda Samarqand viloyat sog‘liqni saqlash bo‘limiga ijaraga berilganligi aniqlangan. Yodgorlikning texnik holatini ko‘zdan kechirish uchun tashrif buyurgan komissiya madrasaga kiritilmaganligi vajidan ta‘mirlanish ro‘yxatida qayd etilmaydi. O‘zbekiston SSR Binokorlik va arxitektura ishlari davlat qo‘mitasi raisi A.Murodxo‘jayev tomonidan 1959-yil 9-

mayda Buxorodagi hududiy vakil S.Sharipovga madrasalarning ijaradorlik masalasida qattiq ogohlantirish berilgan[7]. Chunki, 1958-yilda Ko‘kaldosh madrasasida o‘nta oila, 1959-yilda Modarixon madrasasida uchta oilaning joylashtirilishi sabab yodgorliklarga zarar yetkazildi. Binoning ko‘rinishi va turli bezaklarning deformatsiyasidan tashqari madrasa atroflarida oqava suvlarning to‘planib qolishi, qolaversa, molxona va hojatxonalarning ham qurilishi yodgorliklar uchun xavfli oqibatlariga olib kelgandi.

Tadqiqotimiz mobaynida yodgorliklarga bo‘lgan munosabat, ulardan foydalanish, ijaraga berish bilan bog‘liq jarayonlar idoralar o‘rtasida turli bahsli holatlarda namoyon bo‘lganligi ham aniqlandi. Bunda Moddiy madaniy yodgorliklarni saqlash va muzeylar boshqarmasining 1967-yil 24-25-fevralda mutaxassislar A.R.Muhammadjonov, A.A.Muzaffarov, R.N.Reyxer hamda I.Y.Patik kabilarni Buxoro moddiy madaniyat yodgorliklarining holati bo‘yicha texnik ko‘rikni amalga oshirish hamda Buxoro Maxsus ilmiy-ta‘mirlash ishlab chiqarish ustaxonasi (MITICHU) faoliyatini o‘rganish maqsadida yuborgani ahamiyatli bo‘ldi. Tekshiruv natijalariga ko‘ra, Sayfiddin Boxarziy, Bayonqulixon maqbarasi, Xalifa Xudoydod masjidi, Chor Bakr, Bahovuddin Naqshband majmuasi, Ark qal‘asining devori, Abdullaxon va Mir Arab madrasalari peshtoqlarining qulash holati aniqlanadi. Shuningdek, Abdulazizxon, Ulug‘bek madrasalari, Kulita karvonsaroyi va Fayzobod xonaqohi jiddiy shikast yetgan ahvolda ekanligi qayd etiladi. Buxoro MITICHUning amalga oshirgan restavratsiya ishlari uchun oxirgi 5 yil davomida (1961-1966 yillar–D.A.) nisbatan kam mablag‘ ajratilganligi ham ma‘lum bo‘ladi. Mutaxassislarning MITICHU faoliyatiga doir xulosalarida esa quyidagi jumlar bayon etilgan:“..Yodgorliklarning ijarasidan ularni ta‘mirlash uchun mablag‘ to‘plash ishlari o‘z natijasini bermagan. Aksincha, bu usul yodgorlikni uzoq va murakkab ta‘mirtalab holatga olib kelgan. [Buxoro Maxsus ilmiy-ta‘mirlash ishlab chiqarish ustaxonasi tomonidan] zudlik bilan tegishli choralar ko‘rilmas ekan, yodgorliklarni qaytarib bo‘lmaydigan holatga kelishiga guvoh bo‘lamiz... Buxorodagi yodgorliklarni

ta'mirlash ishlari jiddiy e'tiborni talab qiladi".[8] Mazkur fikrlar Buxoro MITICHUning XX asr 60-yillaridagi faoliyatida yuzaga kelgan kamchiliklar xususida atroflicha ma'lumot berishi bilan ahamiyatli.

Buxoro viloyat Ijroiya qo'mitasining 1967-yil 14-martda viloyat madaniyat bo'limi boshlig'i R.Fozilovga tarixiy yodgorliklarning ayrimlarini ijaradorlardan bo'shatish kerakligini so'rab qilgan murojaatini yuqoridagi tashrifning natijasi sifatida baholash mumkin. Ammo R.Fozilov ushbu masalani hal etish ba'zi bir muammolar, xususan ularning foydalanuvidan kelib tushadigan ijara mablag'laridan voz kechishga olib kelishini, qolaversa yodgorliklar ta'miri uchun davlat tomonidan ko'proq summa ajratilishini ham taqozo etishini aytadi. Murojaatga javoban yo'llangan xatda Masjidi Kalon, Mag'oki Attor, Toqi Telpakfurushon, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Abdullaxon timi, Nodir Devonbegi va Ko'kaldosh madrasalaridan yiliga jami 50.000 rubl ijara tushumi mavjudligi ham ilova qilingan. Biz ko'rib chiqqan manbalarda masala yechimiga daxldor ma'lumotlar garchi uchramasa-da, tarixiy yodgorliklarni ijaraga berish tizimi bekor qilinmagan, deb hisoblash mumkin. Buni keyingi yillarda ham ijara bilan bog'liq shartnoma hujjatlarining mavjudligi tasdiqlaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qarovsiz ahvolda qoldirilgan, foydalanilmagan me'moriy inshoot ta'mirlangandan keyin chamas i besh-o'n yil o'tgach, yana ta'mirga muhtoj bo'lib qoladi. Ya'ni, fikrimizcha, mutasaddi tashkilotlar tomonidan bu boradagi taklif va tavsiyalar, loyihalar o'rtaga tashlanganligi o'rinli edi. Biroq, obida devorlari teshilib, santexnika tarmoqlari o'tkazilishi, yemirilishiga olib keladigan, inshootning asl mohiyatidan begonalashtiradigan jihatlar emas, yodgorlik tarixiy-badiiy qimmatini buzmaydigan holatlarda, masalan, muzey, ko'rgazma zallari, kutubxona sifatida foydalanilsa, bu albatta, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tadqiq etilayotgan masalaga doir hujjatlar madrasalardan turli maqsadlarda noo'rin foydalanish hollari ko'plab uchraganligidan guvohlik berdi. Jumladan, Abdulazizxon madrasasining qamoqxona, keyinchalik esa Buxoro shahar harbiy

komissariat binosi, yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Yodgorliklar muhofazasi inspeksiyasi binosi sifatida, Nodir Devonbegi madrasasi esa mehmonxona, Buxkomstaris devonxonasi, ekskursiya bazasi xodimlari xonasi, sogʻliqni saqlash boʻlimi, Qurilish texnikumi yotoqxonasi, Gavkushon madrasasining Maorif xodimlari uchun ajratilganligi, Koʻkaldosh madrasasi dastlab Buxoro muzeyi, soʻngra tamaki mahsulotlarini saqlash ombori, shakar ombori, umumiy turar joy, xalq ijodiy uyi va arxiv binosi kabi vazifalarni bajardi. Xalifa Xudoydod madrasasidan nogironlik uyi sifatida foydalanilgan. Mir Arab madrasasi gʻalla ombori, Abdullaxon va Modarixon madrasalari paxta xomashyosi ombori, shakar ombori sifatida ham ijaraga berilgan edi. Mazkur holatlar madrasalar xalqimizning moddiy merosi sifatida emas, balki sotsialistik tuzumning xoʻjalik va maishiy ehtiyojini qondiruvchi bino-inshoot sifatida “qadrlanganligidan” dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston MA, R-394-fond, 1-roʻyxat, 266-yigʻmajild, 219-varaq.
2. Oʻzbekiston MA, R-394-fond, 1-roʻyxat, 266-yigʻmajild, 42-43-varaqlar.
3. Oʻzbekiston MA, R-2296-fond, 1-roʻyxat, 121-yigʻmajild, 4-8-varaqlar, 1-roʻyxat, 449-yigʻmajild, 111-varaq.
4. Oʻzbekiston MA, R-2296-fond, 1-roʻyxat, 144-yigʻmajild, 177-varaq.
5. Oʻzbekiston MA, R-2296-fond, 1-roʻyxat, 313-yigʻmajild, 1-2-varaqlar.
6. Oʻzbekiston MA, R-2296-fond, 1-roʻyxat, 428-yigʻmajild, 290-varaq.
7. Oʻzbekiston MA, R-2296-fond, 2-roʻyxat, 9-yigʻmajild, 151-varaq.
8. Oʻzbekiston MA, R-2296-fond, 6-roʻyxat, 17-yigʻmajild, 14-17-varaqlar.